

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

QO‘SHIQLARDA POETIK TAKRORLARNING TURLARI VA ULARNING OHANGNI HAMDA ESTETIK-G‘OYAVIY MAZMUNNI KUCHAYTIRISHDAGI VAZIFALARI

Dilshod Zaripovich RAJABOV

*Filologiya fanlari doktori, professor
Buxoro davlat universiteti, kafedra mudiri*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15290666>

Annotatsiya: O‘zbek xalq qo‘shiqlarida poetik takrorning hosil qiluvchi unsurlarning ifodalanish shakllari va ko‘rinishlari ko‘rsatilgan. Poetik takror xillari, uni matnda ohangdorlik va g‘oyaviy mazmunini kuchaytirishdagi ko‘rinishlari DLT dagi she‘rlarni qiyoslash orqali ifodalangan.

Kalit so‘zlar: DLT, ohang, poetik takror, anafora, epifora, epanostrofa, anadiplisos.

Аннотация: В статье представлены формы и проявления элементов, создающих поэтическую повторяемость в узбекских народных песнях. Типы поэтической повторяемости и их выражения, усиливающие мелодию и и идейное содержания в тексте, выражались в сравнении стихов в DLT.

Ключевые слова: ДЛТ, мелодика, поэтическая повторяемость, анафора, эпифора, эпанострофа, анадиплосис.

Annotation: The forms and manifestations of elements that create poetic repetition in Uzbek folk songs are presented. The types of poetic repetition and their expressions in enhancing the melody and conceptual meaning of the text are illustrated through the comparison of poems in DLT.

Keywords: DLT, melody, poetic repetition, anaphora, epiphora, epanostrophe, anadiplosis.

O‘zbek xalq qo‘shiqlarining kompozitsion tuzilishida takrorning o‘rni beqiyos. “Badiiy nutqqa xos kompozitsion – sintaktik ifoda usullaridan biri: ayrim tovushlarni, bir yoki bir necha so‘zni yoki so‘z birikmalarini, ba‘zan esa ma‘lum satrni atayin takrorlash orqali fikr yoki his – tuyg‘uni ifodalashga” uning ta‘sir kuchini oshirishga va turli intonatsiyalarni bo‘rttirib ko‘rsatishga imkon beradigan stilistik usul”, [Hatamov N.1:235] - deyiladi “Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha – o‘zbekcha lug‘atida” takror haqida. Bundan takror badiiy nutqni ohang jihatdan bezaydigan hodisa ekanligi ayonlashadi. Xalq qo‘shiqlaridagi yakrang o‘ynoqilik, ohangdorligu, xushohanglik ham takror vositasida amalga oshadi. Tugallangshan ikki misra, ikkita gap, ikki tugallangan sintaktik birlik, ikki ritmik bo‘lak turlicha shakl va mazmunni ifoda qilishi mumkin, - deydi V.A.Jirmunskiy. Uning fikricha bular 1) anafora tarzidagi tovush takrori, 2) epifora tarzidagi tovush takrori, 3) epanostrofa ya‘ni birinchi misraning oxirigi va keyingi misraning boshidagi takror 4) anadiplisos

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

tarzidagi takror. Ahamiyatli tomoni shundaki, yuqoridagi holatni o‘zbek xalq qo‘shiqdarida ham ko‘rib o‘tish mumkin. Ma‘lumki, anafora “Bir xil so‘z yoki so‘zlarning she‘riy misralar boshida takrorlanib kelishiga asoslangan stilistik figuradir”. [Hatamov N.1:30]

M.Mamatqulov “Qadimgi turkiy adabiyotda to‘rtlik va marsiya” nomli monografiyasida ham takror va uning matndagi o‘rni masalasiga atroflicha to‘xtalib o‘tishga harakat qilgan. Umuman takrorlarning bir necha shakliy va mazmuniy ma‘nolari bor. Bu haqda tilshunoslik va adabiyotshunoslikka oid kitoblarda ma‘lumot berilgan. Pirovard oqibatda ularning birini ikkinchisidan farqlash zarurati tug‘iladi. Biroq mumtoz va hozirgi adabiyotda ushbu masalaning ilmiy nazariy asosi haqida u qadar keng ma‘lumot uchramaydi. Shu bois masalaning tub ildiziga murojaat qilish maqsadida ulug‘ alloma Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asariga e‘tibor berishni lozim ko‘rdik. Zero matn endi faqat bir tomonlama ya‘ni adabiyotshunoslik yo tilshunoslik tomondan baho berish o‘zini u qadar oqlamaydi deb hisoblaymiz. Alalxusus, matnning filologik tahlilida nazariy muammoning asl mohiyati ochiladi.

Poetik san‘atlar, jumladan, alohida olingan bir unurning fonetik tarkibini o‘rganish tovush va harf (muayyan shartli belgi) munosabatlarining bevosita kuzatishda berilmagan, balki qo‘llanish jarayonida yuzaga chiqadigan holatlari borasida yangi, idrokiy tasavvur yuritish uchun omil bo‘ladi. Chunonchi, tasnifiga ko‘ra maqomi turlicha bo‘lgan unli yoki undoshlarning qofiya tarkibida aralash holda qolishi qofiyadosh ikki so‘z tarkibida bo‘lgan bir xil tovushlar tizimida vujudga keladigan muayyan o‘zgarishga sabab bo‘lishi, binobarin, fonostilistik jarayonda qofiyadoshlik yuzaga chiqishini ko‘rsatadi.

Alifboda tartib bilan o‘rin olgan harflar talaffuzi va nutqiy vaziyatdagi maqomi turlichadir. Zero, tinglovchiga muayyan axborotni yetkazish ehtiyoji, uni qabul qilish talabi hamda nutqiy vaziyat (va h.k.) xolati tovushlar uning muayyan o‘zgarishga uchrashiga sabab bo‘ldi. Badiiy matnlar esa, tovushlarning rang-barang xususiyatlari yuzaga chiqishini ko‘rsatuvchi o‘ziga xos “ko‘zgu” hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, quyida ayrim she‘riy parchalarni keltirib, ularning qofiyasidagi asosiy tovushlarga e‘tiboringizni jalb qilmoqchimiz.

Turkiy tillarda yaratilgan poetik matnlar materialida fonetik ohangdoshlikning yuzaga chiqish holati, uning tarixi va tadrijining tadqiqida, eng avvalo, ilk manbalar asosida ish ko‘rmoq lozim. Bunda esa, “Devonu lug‘atit turk”da keltirilgan poetik nutq namunalari muhim ilmiy qimmatga ega bo‘lib, ularni, qiyosiy – tipologik,

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

etnogenetik aspektlarda tekshirish badiiy tafakkur tadrijiga doir muhim xulosalar beradi. Ayniqsa, poetik nutqda fonetik ohangdorlik masalasi, badiiy ijodning sof, muayyan ma’nodan qayta qoliplashtirilmagan, tayyor sintaktik birliklar tizimiga asoslanuvchi maqollarda yanada yorqin ifodalangan. Shuningdek, tilning keyingi taraqqiyotida turkiy tillardagi bir-biriga mos kelmaydigan jihatlarni fonetik jarayonlar yuzaga keltirganligi Mahmud Koshg‘ariy tomonidan XI asrdayoq e’tirof etilgan. Zotan, bu davrda ayrim turkiy xalqlar tomonidan sod, zod, to, ayn, g‘ayn, hoyi havvaz singari arab tiliga xos fonemalar faol qo‘llanila boshlangan. Turkriy tillar fonetik tabiatdagi bu o‘zgarish o‘sha tarixiy davrga xos bo‘lgan poetik nutqning fonetikasidagi ustuvor holat sifatida ko‘zga tashlanmasa-da, uning rivojiga muayyan darajada ta’sir ko‘rsatgan. Shu ma’nodan, turkiy tillarga xos fonetik ohangdoshlik va shu til imkoniyatlari asosida yuzaga kelgan poetik nutq fonologiyasi bilan bog‘liq jarayonlarda dastlabki manba maqollar bo‘lishi tabiiydir. Chunonchi, quyidagi maqolni olib ko‘raylik:

Og‘laq yiliksiz, og‘lan biliksiz [Devon, I t,8:141].

Ko‘rinadiki, butun gap tizimida farqlanuvchi fonetik unsur 4 ta bo‘lib, ular **q**, **n**, **y** va **b** tovushlari ifodasida mujassam bo‘lgan. Ammo gap shundaki, talaffuziga ko‘ra, ular bir-biriga yaqinlik xususiyatiga ega. Nazariy adabiyotshunoslik bunday hodisaga nisbatan evfoniya atamasini qo‘llaydi.”Nutqda evfoniya asosan fonetik vositalar yordamida yuzaga keladi. Nutqning xushohangligi ko‘p jihatdan uning fonetik tashkillanishiga bog‘liqdir. Evfoniya she’riy nutqda ayniqsa, katta ahamiyat kasb etadiki, shuning uchun she’rning fonetik takrorlanishiga alohida e’tibor beriladi. She’riy nutqning ritmikligi, unda yetarlicha takrorlarning qo‘llanilishi evfoniya asos bo‘ladi” [Quronov D.2:355]. Xalq donishmandligining namunalarida ko‘pincha tovush takrori, turli harakatlar, ritmik harakatning barqarorligi ta’minlaydi. Ana shunda xushohanglilik va bir xil tartibdagi sinxron harakat tinglovchining e’tiborini tortadi. Nihoyat matndan anglashilayotgan ma’no tez tushuniladi. Bunda turli ijro vositalari hamda musiqaviy sozlar ham umumiy yaxlitlikni paydo qiladi. Demak, qofiya, alliteratsiya, assonans, tovush takrorlari, epifora, monorim va hokazolar evfoniyani tug‘diruvchi vosita va usullar hisoblanadi. Umuman, badiiy nutq uchun xos hodisani yana ko‘rib o‘tish mumkin.”Alliteratsiya - tovush takrorining emotsionallikni, muayyan his-tuyg‘ular ifodasini kuchaytirishga xizmat qilmog‘i shart qilinadi. Mazkur shart bajarilmagan o‘rinlarda tovush takrori badiiy vosita emas, balki tilda mavjud tovushlarning nutqdagi takroridir.” [Quronov D.2:27] - deyiladi Adabiyotshunoslik lug‘atida. ”Tildagi mavjud tovushlarning nutqdagi

“TURKIY XALQLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

takrori”,- degan qarashga qo‘shilib bo‘lmaydi. Chunonchi, nafaqat yozma adabiyot namunalari, hatto xalq she‘ridagi oddiy takrorlar ham bu da‘vo asossizligini tasdiqlaydi. Masalan, “tez aytish”, “maqol”, “kinna”, “badik”va hakazolarda tovushlar takrori u yoki bu jihatdan she‘riy parchaning badiiyatiga samarali daxl qila oladi. “Tez aytishlar nutq tovushlari alliteratsiyasiga asoslangan fol’klor janri bo‘lib, o‘xshash tovushli so‘zlar yoki so‘z birikmalarining bir nafasda shiddatli aytilishi jarayonida u yoki bu tovush, u yoki bu so‘z talaffuzida chalg‘ish yo tutilish natijasida voqe bo‘luvchi ma‘no o‘zgarishi negizida yuzaga keladi” [Safarov O.3:354].Tez aytishlar haqidagi ushbu qarash fikrimizni yanada quvvatlantiradi.

Turp tutni tutib turibdimi?

Tut turpni tutib turibdimi? [Mirzaev T.4:426]

Yuqorida keltirilgan tez aytish aliteratsiyaning mukammal bir ko‘rinishi sifatida e‘tiborni tortayotir.”T”undoshi sakkizta so‘zda o‘n ikki marta qo‘llangan yoki ishlatilgan o‘z navbatidi ”U” unlisi sakkiz marta iste‘foda etilgan. Natijada assonans va dissonans alliteratsiya birgina baytning o‘zida ohangdoshlikni yuzaga keltirib, mumtoz adabiyotdagi kabi tavze’ san‘atini paydo qila olgan deyish mumkin.Tez aytishda yuqorida ta‘kidlangani kabi “ma‘no o‘zgarishi negizida” poetik fikr bo‘rtib ko‘ringan. Ayonlashayotirki, takror o‘zbek xalq she‘rida aloda imkoniyat doirasi hosil qiladi. She‘rshunos olim U.To‘ychievning yozma adabiyotda yaratilgan barmoq tizimidagi she‘rlar tahliliga bag‘ishlangan ishida aytilganidek, “fonetik jihatdan yaxshi ishlangan she‘rda kishi sezgisiga ta’sir etuvchi ohang va musiqiylik kuchli bo‘ladi, ammo bu ohang hamda musiqiylik she‘r ritmi va nutq tovushlari kompleksidan, ma‘lum so‘zlar birikmasi va nutq bo‘laklari aloqasidan kelib chiqadi.” [To‘ychiev U.5:173]. Umuman fonetik hodisalarga XX asrda yozma adabiyotda yaratilgan she‘rlar misolida munosabatda bo‘lingan. Bunda barmoq tizimidagi she‘rlar bir necha ming yillar oldin ham mavjudligi e‘tibordan soqit qilingan deyish mumkin . Biroq tahlil fonetik jarayonlar haqida borayotganligini bu esa o‘z navbatida xalq ijodiyotiga ham daxldor ekanligini nazardan qochirmaslik kerak. Ayonki, xalq qo‘shiqlar va aytimlari turkiy xalqlarda arab bosqinidan avval ham bo‘lgan. Demak takrorlar misra yoki bandlarda shunchaki “tildagi mavjud tovushlar takrori” emas. Fol’korshunos A.A.Linin takrorning Ikki xil ko‘rinishini borligini ta‘kidlaydi:

1) misra yoki she‘rlararo;

2) she‘r ichi yoki so‘zlararo. [Seriya “Vost.e”.6:151]

Ushbu tez aytishda esa she‘r ichi yoki so‘zlararo takrori kuzatish mumkin.

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Shuningdek, ularni gorizontal takrorga misol qilish mumkin. Boshqa turkiy xalqlar kabi o‘zbeklar ham she’r va qo‘shiqlarida ohangdorlikni ta’minlovchi vositalarga nihoyatda etibor bilan qarashgan. Bu holat an’anaviylik kasb etib kelayotir. Bunday takrorlar oddiy tovush takrorlari yoki parallelizmlarning shunchaki hosilasi bo‘lmasdan balki badiiyat uchun keng xizmat qilgan. O‘zbek mumtoz she’riyati poetikasi bilan samarali shug‘ullangan olim Yo.Is’hoqov tadqiqotlarida takror va uning badiiy san’atlarni hosil qilishdagi o‘rni atroflicha tahlil qilingan. . [Is’hoqov Yo.7:128]

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, nafaqat tez aytishlarda, balki xuddi shunday holat xalq og‘zaki ijodining boshqa janrlarida ham ko‘rinadi. Unli va undoshlarning poetik nutqdagi ifodasida ham mavjudligini quyidagi maqolda ko‘rish mumkin:

Yaqadaqi yalg‘ag‘ali elikdagi ichg‘inur [Devon, I t,8: 254].

Bu maqol matnidagi **y, q, g‘, k, l** undoshlari birinchi, a va i unilari esa ikkinchi fonetik takror tizimini vujudga keltirgan. Shubhasiz, fonemalarning badiiy nutqda qo‘llanilishi bilan bog‘liq. Bu xalq og‘zaki ijodi (she’rlar) va shu asosda shakllangan yozma adabiyotga ham singib ketgan. Bizning nazarimizda buning birinchi sababi individual badiiy salohiyatning umumiy dunyoqarashga asoslangan poetik tafakkur negizida shakllanganligi bilan xarakterlanadi. Qachonki, individual notiq o‘z nutqi (matn)da umumiy dunyoqarashga xos bo‘lmagan qiyoslash yo‘lidan borar ekan, ya’ni u yoki bu holatga munosabat bildirayotganda mubolag‘ali, ayni damda, o‘xshatishli yo‘lni tanlar ekan, endi tamomila yangi ohang asos qurilgan tizim (matn) maydonga keladi. Bu xususiyat she’riy matnlarda tashbeh, sifatlash, tamsil va maqollarni qo‘llash (va h.k.)da yorqin ifoda topishi shubhasiz. Ayni paytda, bu holat matndagi tovushlarning fonopoetik tizimiga jiddiy o‘zgarish kirita olmaydi, chunki ijodkor tilning leksikadagi mavjud so‘zlardan tayyor material sifatida foydalanadi. Bunda so‘zning fonetik tarkibini emas, balki tovushlarda anglashilgan ikkilamchi ma’nolarni ochishga harakat qilishi tabiiy. Xuddi shuningdek, qofiyaning leksik tarkibi haqida gap ketar ekan, tajnis qofiya hosil qilgan omonimlar shu tilning ichki imkoniyatlariga asoslanishi muqarrar hodisa. Ammo omonimiyaning vujudga kelishi-chi? Bu til leksikasining boyligi, boshqa tillarga nisbatan o‘zgacha imkoniyatlarga ega ekanligi, ijodkorning mahorati uslubi va h.k. mushtarakligidami yoki boshqa sabablar mavjudmi?

Matn tahlilida bajarilishi lozim bo‘lgan muammolar ancha ko‘p. “Devonu lug‘otit turk”dagi she’rlar poetik xususiyatlarini turkiy tildagagina xosliklar asosida yoritish esa birinchi vazifadir.

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Фонетик таркиби:

Алп Эр Тоъа өлдімў,

Эсіз ажун қалдіму,

Озләк өчін алдіму,

Эмді жүрәк жіртілуp.

Alp Er To‘nga (Afrosiyob) o‘ldimi,

Yaramas dunyo qoldimu,

Dunyo undan o‘chini oldimi,

Endi yuraklar uning uchun yaralanmoqda.

(Afsuski, qahramon Alpertunga o‘ldimi, yaramas dunyo undan ajralib qoldimi, zamona undan o‘chini oldimi, endi uning uchun yuraklar yaralanayotir) [Devon, I t,8: 77]..

Ko‘rinadiki, band tizimida farqlantiruvchi fonopoetik detal vazifasini bajaruvchi muayyan tovushning ishtiroki (shunday tovush mavjud bo‘lgan so‘zning) kelishi qofiyadoshlikni hosil qilgan. Chunonchi, uch so‘z tarkibida kelgan «ö», «ä» unlilari hamda «q» undoshilari farqlantiruvchi tovushlardir. Qofiya tarkibidagi bunday tovushlar poetik maqomni belgilashga qaratilgan keng ko‘lamli izlanishlarni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Хатамов .Н,СаримсоқовБ.Адабиётшунослик терминларининг русча – ўзбекча изоҳли луғати.-Б. 235
2. КуроновД.ва бошқ.Адабиётшунослик луғати – Б.355.
3. Сафаров О.Ўзбек халқ оғзаки ижоди.Т:Муסיқа. 2010.-Б.354.
4. Mirzayev.T,Safarov O, O‘rayevaD. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi xrestomatiyasi.T.Aloqachi -B. 406
5. Тўйчиев У.Ўзбек совет поэзиясида бармоқ системаси.Т.:Фан..!966..-Б.173.
6. Квопросам формального изучения поэзии турецких народов.Изд.во ф-та Азербайджанского гос.унв-та.Серия “Вост.е”;1 том.Боку:,1926.-С 151.
7. Исҳоқов Ё.Сўз санъати сўзлиги.Т:Зарқалам.2006.-Б.128.
8. Қошғарий М. “Девону луғотит турк”,(уч томлик).Тошкент 1960.